



ILMIY PSIXOLOGIYADA SHAXS QOBILIYATLARI MASALASINING O`RGANILISHI

Madgafurova D.O.

Qo`qon davlat pedagogika instituti katta o`qituvchisi

Tayanch so`zlar: qobiliyat, irsiyat, tug`ma, faoliyat, shaxs, individual, psixologik xususiyat.

Ключевые слова: способности, наследственность, врожденная, активность, человек, индивидуум, психологическая характеристика.

Key words: abilities, heredity, congenital, activity, person, individual, psychological characteristics.

Резюме:

Mazkur maqolada ilmiy psixologiyada shaxs qobiliyatlari masalasining o`rganilishi bo`yicha garb olimlarining fikrlari va O`zbekiston psixolog olimlaridan E.G. G`oziev, R.Z. Gaynutdinov, M.G. Davletshin, B.R. Qodirov, V.A. Tokareva va boshqalar shug`ullanganliklari to`g`risidagi ma`lumotlar aks ettirilgan

Резюме:

В данной статье представлены мнения ведущих ученых по изучению способностей личности в научной психологии и психологов Узбекистана E.G. Газиев, P.З. Гайнутдинов, M.G. Давлетшин, B.P. Кадыров, B.A. Отражена информация о деятельности Токаревой и других.

Summary:

This article presents the opinions of leading scientists on the study of personality abilities in scientific psychology and psychologists of Uzbekistan E.G. Gaziev, R.Z. Gainutdinov, M.G. Davletshin, B.R. Kadyrov, V.A. Information about the activities of Tokareva and others is reflected.

Qobiliyat deb, insonni u yoki bu faoliyatning samarali bajarilish imkoniyati bilan ta`minlovchi layoqatlarning o`ziga xos uyg`unligiga aytiladi. Ushbu ta`rifda qobiliyatga bog`liq ravishda faoliyatning samarali bajarilishi emas, balki, faqat shunday bajarilishi mumkin bo`lgan imkoniyatga e`tibor qaratish lozim. Faoliyatni samarali tarzda amalga oshirish uchun muvofiq keladigan qobiliyatlar uyg`unligining mavjudligi emas, balki, zarur bilim va ko`nikmalarning egallanganligi ham muhimdir. Qobiliyat faqat u yoki bu faoliyatda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini belgilaydi, bu imkoniyatning joriy qilinishi esa muayyan qobiliyatlarning rivojlanish darajasi va qanday bilim va ko`nikmalarning egallanganligi bilan belgilanadi.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslangan holda xulosa qilish mumkinki, qobiliyat va layoqatlar tabiiy zaminga bog‘liq bo‘lsa-da, lekin ular faqat tabiatning in’omi emas, balki insoniyat tarixiy taraqqiyotining bebaho mahsulidir. Xuddi shu bois qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi shaxslar tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish davomida ijtimoiy shartlangan bilimlar va ko‘nikmalarni tarkib toptirishning yaqqol usullariga bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun qobiliyatlar taraqqiyotining uzluksiz ta’lim tizimiga bog‘liq ekanligini ta’kidlab o‘tish muhim ahamiyatga ega. Bu konsepsiyaning natijaviy xulosasi bo‘lib, har bir odamda turli qobiliyatlarni shakllantirish mumkinligi haqidagi holat hisoblanadi. Ushbu fikrning tarafdori, amerikalik olim U.Ushbining tasdiqlashiga ko‘ra, qobiliyatlar, avvalambor, inson bolaligida shakllangan aqliy faoliyat dasturi bilan belgilanadi. O‘z dasturiga muvofiq ravishda ayrim odamlar ijodiy masalalarni echadilar, boshqalar esa nimani o‘rgangan bo‘lsalar, shuni bajara oladilar. Hozirda bu konsepsiyaning tarafdorlari AQShda qobiliyatli bolalarni «o‘stirish»ning maxsus markazlarini tashkil qilmoqdalar. Xuddi shunday, Filadelfiya institutida inson qobiliyatidan yanada yaxshiroq foydalanish uchun har daqiqa g‘animat deb hisoblab, miyaga tanballik qilishga imkoniyat yaratmaslik maqsadida bolalarning aqliy rivojlanishi bo‘yicha mashg‘ulotlarni 4-5 yoshdan boshlaydilar.

Hayotiy kuzatuvlar va maxsus tadqiqotlar qobiliyatlar tabiiy shartlarining mavjudligini inkor etish yaramasligini ko‘rsatadilar.

Shunday qilib, bir tomondan, qobiliyatlar rivojlanishida irsiyat katta ahamiyatga ega, chunki inson asab tizimi anatomik-fiziologik tuzilishining xususiyatlari ma’lum darajada iste’dod nishonalarini belgilab beradi. Lekin, ikkinchi tomondan, qobiliyatlarning rivojlanishi ko‘plab ijtimoiy sharoitlarga bog‘liq, ularning sirasiga tarbiyalash xususiyatlari, jamiyatning u yoki bu faoliyatga ehtiyoji, ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va boshqalarni kiritish zarur.

Har qanday holatda ham individning u yoki bu faoliyatga yaroqliligini oldindan belgilash faoliyatdagi qobiliyatlarning rivojlanishi tarkib topishi zarur. S.L. Rubinshteyn inson qobiliyatlari rivojlanishining asosiy qoidasini quyidagicha ifodalaydi: «Qobiliyatlar rivojlanishi spiral bo‘yicha amalga oshiriladi: biror darajadagi qobiliyatdan iborat bo‘lgan imkoniyatni joriy etish, undan yuqori darajadagi qobiliyatlarning keyingi rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Inson qobiliyati xususiy imkoniyatlarni joriy etish ochib beradigan yangi imkoniyatlar kengligi bilan belgilanadi» .

Qobiliyatlar muammosi bilan O‘zbekiston psixolog olimlaridan E.G. G‘oziev, R.Z. Gaynutdinov, M.G. Davletshin, B.R. Qodirov, V.A. Tokareva va



boshqalar shug‘ullanadilar. Masalan E.G. G‘ozievning Psixologiya kitobida quyidagi ma’lumotlar o‘z aksini topgan: qobiliyatlar to‘g‘risida umumiy tushunchani vujudga keltirish uchun ularga aloqador omillar, tarkiblar bo‘yicha ayrim ma’lumotlar keltirish maqsadga muvofiq:

a) qobiliyatlar shaxsning psixologik xususiyatlari ekanligini;

b) mazkur xususiyatlarga bilim, ko‘nikma, malaka orttirish bilan erishilishi mumkinligini;

d) shu xususiyatlarning o‘zi bilim, ko‘nikma va malakalarga taalluqli emasligini aytish kifoya. Yuqoridagi voqeliklarning tahlilidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, tovarga berilgan baho, tanlovlardagi muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz degan jihatning ishtirok etishiga asoslanib, shaxslarning qobiliyatlari yuzasidan qat’iy qarorga kelish mumkin. Psixologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, oliy ta’lim jarayonida o‘zlashtirish ko‘rsatkichi bo‘yicha „ortamiyona“ talaba keyinchalik borib ijobiy tomonga o‘zgarishi, boshqa sohada yuksak natijalarga erishishi, hatto mutaxassisligiga yondosh ixtisoslikda o‘zini ko‘rsatishi ham mumkin.

Ta’lim va ijtimoiy turmushda uquvsiz, „yaroqsiz“ deb baholangan insonlar keyinchalik biron-bir sohaning yetakchi mutaxassisi sifatida elga tanilishi, yuqori lavozimlarni egallashi, tadbirkor shaxs sifatida kamol topishi hodisasi tajribada ko‘p uchraydi. Shuning uchun bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash jarayonida qobiliyatlar namoyon bo‘lsa-da, lekin ular faqat bilim, ko‘nikma, malakalarga bevosita taalluqi emas, shu bois, ular bir-biri bilan o‘zaro munosabat va nuqtayi nazardan tahlil qilinganda qobiliyatlar bilan bilimlar, qobiliyatlar bilan ko‘nikmalar mohiyat, mazmuni, ma’no jihatidan bir-biridan farqlanadi. Zero, bilim - kishilarning tabiat jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan voqelik ma’lumotlar; voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqea va qoidalarga zid kelmasa bunda ishonch hisoblanadi. Voqelik haqidagi bilgan ma’lumotlarimiz Bilim darajasiga ko‘tarilishi uchun quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim:

birinchidan, bu ma’lumotlarning voqelikka mutanosibligi;

ikkinchidan, yetarli darajada ishonarli bo‘lishi;

uchinchidan, bu ma’lumotlar dalillar bilan asoslangan bo‘lishi lozim. Uchala shart birgalikda mavjud ma’lumotlarni bilim darajasiga olib chiqadi. Inson ijtimoiy taraqqiyot jarayonida bilmasliqdan bilishga, mavhum bilimlardan mukammal va aniq bilimlar hosil qilish tomon boradi. Kishining moddiy dunyo to‘g‘risidagi bilimi nisbiydir, u doimo rivojlanib boradi. Bilim kundalik tajriba, kuzatish orqali to‘planadi.

Ko'nikma - insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Ko'nikmalar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo'llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir. Ko'nikma faoliyatning maqsadi va sharoitlariga mutanosib ravishda harakatni muvaffaqiyatli bajarish usullaridir. U hamisha bilimlarga asoslanadi, mahorat (malaka)ning negizi hisoblanadi. Ko'nikma mazmunan amaliy (jismoniy) va aqliy, shaklan oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Amaliy ko'nikmalar mehnat faoliyatini amalga oshirishga, aqliy ko'nikmalar bilim olishga, uni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ko'nikmalarni bilim bilan adashtirmaslik lozim, chunki bilimlar voqelik to'g'ri aks ettirilgan hukm (mulohaza)larda ifodalanadi. Ko'nikmalar esa ko'proq aqliy va jismoniy harakatlarda mujassamlashadi.

Xulosa qilib aytganda, qobiliyat - insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, Qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko'nikma, malakadan farq qiladi. Qobiliyat insonga berilgan in'om sifatida qaraladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat aynanlashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat - kuzatuvchanlikda, ya'ni insonni fahmlash, obyektдан u yoki bu alomatlarini ko'ra bilish, ajrata olish ko'nikmasidir.

Adabiyotlar:

1. Ivanov I., Zufarova M. "Umumiy psixologiya". O'z.FMJ., 2008.
2. Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: "Fan va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi : 2009.
3. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. "Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti" – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
4. Nazirova L.V., Raximova I.G., Kamalova Z.X., Xolmuratova D.A., «Obshaya psixologiya» - Uchebnoe posobie T. TGPU. 2020 g
5. Yugay A.X., Mirashirova . N.A. «Obshaya psixologiya» T. TGPU, 2014.
6. Хайдаров Ф.И., Халилова Н.И. «Умумий психология» Т.: ТДПУ 2010 йил.
7. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.